

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Sobirova Muqaddasxon Rustamjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo‘yicha)

yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail: muqaddassobirova5@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada masalalarni yechish o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatib, ularda tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish va abstrakt farqlash ko‘nikmalarni shakllantirishi va masalalarning tarbiyaviy ahamiyati haqida ma’umot berilgan.

Kalit so‘zlar: Masalalar, o‘quvchilar, ma’lum va noma’lum, nazariy ko‘nikma, boshlang‘ich sinflar, amaliyot, masala yechish, mashqlar, pedagogik-psixologik.

Raqamli sonlar va nol arifmetikasini o‘rganish boshlang‘ich sinflar matematika dasturiga binoan masqsad sari yo‘naltirilgan tizimga asoslanadi, ya’ni ularni o‘zlashtirish mazkur kursning asosiy tushunchalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Nazariy masalalar mashqlarni yechish davomida amaliy ahamiyat kashf etadi. Bunda mashqlar nazariya bilan amaliyotni o‘zaro bog‘lovchi halqa vazifasini bajaradi. Mashqlardan foydalanish o‘quvchilarda dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilib, ularga son, arifmetik amal, kabi abstrakt tushunchalar real hayotdan, amaliy faoliyatdan olinganligiga ishonchni mustahkamlaydi. Mashqlarni yechish jarayonida o‘quvchilar tasavvurini kengaytiruvchi faktlar bilan tanishadilar. Bu bilan ularning farqlash doirasi kengayadi, hamda mashg‘ulot bilan hayot, (amaliyot) o‘rtasida uzviy aloqa o‘rnataladi.¹

Masalalarni yechish o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatib, ularda tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish va abstrakt farqlashga ko‘nikmalarni shakllantiradi. Masalalarning tarbiyaviy ahamiyati ham byeqiyosdir. Ayni vaqtda, masalalarning o‘zлari ham bevosita o‘rganish obyektiga, shuningdek, ularni yechish zaruriy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi vositaga aylanadi. Masalalarni real hayotimizga

¹ Umumiyl o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari. Boshlang‘ich ta’lim “Ta’lim taraqqiyoti” jurnali, Toshkent “Sharq”, 1999, 7 - soni

bog‘lagan holatda o‘quvchilarga o‘rgatishimizda esa bevosita mashqlar (amaliyot)ning o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Mashqlarni yecha olish qator o‘zaro aloqador va uzviy bog‘langan qator xususiy (alohida) ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladiki, ularni quyidagicha ta’kidlab o‘tish mumkin:

1. Mashqni o‘qib chiqib, uni tushunish, ya’ni har bir iboraning ma’nosiga yetib, unda tasvir etilgan xolatni ko‘z o‘ngida gavdalantira olish;
2. Mashqdagi shart va savol. Ma’lum va noma’lum narsalarni ajratib ola bilish;
3. Mashqdagi shart va savol, berilgan va izlanayotgan ma’lumotlar o‘rtasidagi aloqani aniqlay olish, ya’ni mashq matnini taxlil eta bilish va uning natijasi o‘laroq, mashqni yechish uchun arifmetik amallarni tanlab olish;
4. Mashqning yechimi va javobini yoza olish.¹

Bu ko‘nikmalar muntazam va maqsadli amaliyot jarayonida quyidagi bosqichlarda shakllanadi.

1. Tayyorgarlik ishlari.
2. Mashq matnini tushuntirish ishlari.
3. Mashqni tahlil etish, uni yechish yo‘lini izlash va yechish rejasini tuzish.
4. Yechim va javobini yozish.
5. Mashq yechilgandan so‘ng uning ustida ishslash.

Mashg‘ulotlarning har bir bosqichida o‘qituvchi masalaning mazmuni, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, mashg‘ulotning didaktik va tarbiyaviy hamda o‘zga qator omillarni nazarda tutib, yechishning turli xil metodik uslublaridan foydalanadi. Masalani yechish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha metodik uslublarga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Masala bo‘yicha o‘quvchi bilan yuzma-yuz suhbat
2. Masalani ko‘rgazmali vositalar yordamida tushuntirish
3. Masalalarni taqqoslash
4. Masalani o‘zgartirish, o‘zgacha shaklga kiritish
5. Masalalar shartlarida biror ta’limot yetishmovchi yoki ortiqcha holatidagi matnini tahlil etish
6. Masalalarni o‘quvchilar tomonidan tuzilishi
7. Masalani boshqa usul bilan yechish
8. Masalaning yechimini tekshirish.

Masala yechishga tayyorgarlik bosqichdayoq - masala iborasini ishlatgan ma’qul. Tayyorgarlik davridagi ishdan maqsad - bolalarga real hayotda yuz beradigan holatlarni matematik simvollar tiliga o‘tkazish imkoniyatini anglatishdan iboratdir. Bu

¹ A.A.Skatkina “Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.” Moskav “Prosveoienie”. 1999

holatda rasmlar yordamida masalalar tuzilishining zarurati yo‘q. Yaxshisi kichik hikoya shaklida bayon etilgan holatni bolalar matematik belgilar bilan daftarga yozib olish imkoniyati bo‘lsin.

Olchaning bir shoxida 3 dona olcha, boshqa shoxida esa 1 dona olcha bor edi, har ikkala shoxdagi olchalar soni 4 ta ekan. Bu hikoyani yozib olish uchun qanday shakldan foydalanish mumkin? (birinchisi $3 + 1 = 4$)

1) Olchaning shoxida 4 dona olcha bor. Shuning bittasini uzib olishdi, shoxida endi 3 dona olcha qoldi. Bu hikoyani matematik belgilari bilan qay shaklda yozib olish mumkin? ($4 - 1 = 3$)

2) Bir shoxda bir dona olcha bor edi. Ikkinci shoxida esa undan 2 dona olcha ko‘p edi. Hisoblab ko‘ringchi, ikkinchi shoxida qancha olcha bor ekan? ($1 + 2 = 3$)

3) Bir shoxda 3 ta olcha bor edi. Ikkinchisida esa undan 2 ta kamroq - ikkinchi shoxda qancha olcha bor ekan? ($3 - 2 = 1$). Bolalar asta-sekin shunday hikoyalar tuzishga kirisha boshlaydilar. Sxematik shakl ular uchun yo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.¹

Masalan:

1. O‘quvchilarni masala tushunchasi bilan tanishtiruvga tayyorlash maqsadida masalalar darsligidagi rasmlar asosida hikoya tuzing.

2. Bolalarni masalalar tushunchasi bilan tanishtirish jarayonida namoyish etishga mo‘ljallangan ko‘rgazmali hamda yakka tartibdagi didaktik materiallardan foydalangan holda amaliy misollar keltiring kabilardir.

Tayyorgarlik bosqichida ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanish bolalarning hisoblash ko‘nikmalarini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari. Boshlang‘ich ta’lim “Ta’lim taraqqiyoti” jurnali, Toshkent “Sharq”, 1999, 7 – soni
2. A.A.Skatkina “Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.” Moskav “Prosvetenie”. 1999
3. Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligining axborotnomasi. 7-maxsus son.1999 yil. 136-178 betlar. Toshkent. “Sharq” Umumiy o‘rta ta’lim Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.
4. Haydarov M., Hasanboeva O. Pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasi. Toshkent. TDPU, 2003 yil. 40 bet
5. N.Muydinova, M.Sobirova, The effectiveness of using games in teaching English for the elementary level learners. Farg‘ona davlat universiteti Chet tillar fakulteti ingliz

¹ Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligining axborotnomasi. 7-maxsus son.1999 yil. 136-178 betlar. Toshkent. “Sharq” Umumiy o‘rta ta’lim Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.

tili kafedrasi II xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Farg‘ona shahar, 2021-yil, 22-aprel. 368-372 s

6. M.Sobirova, Developing information competence in primary schools. “Current research journal of pedagogics” noyabr 2021. 130-133 s.

7. D.To‘xtasinov, M.Sobirova, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnli masalalar yechishga o‘rgatish, Farg‘ona davlat universiteti. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari I-qism. Farg‘ona 18-noyabr 2022-yil. 231-234 s

8. M.Sobirova. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida tejamkorlikka undovchi masalalar ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish. Farg‘ona davlat universiteti. Ta’lim jarayonining dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (1-chiqish 2-qism) 20-may Farg‘ona-2023-yil 152-155 s

9. Abdullayeva B., Aliyev N. Pedagogical Ability In Self-Development Of A Future Primary School Teacher //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-153.

10. Aliyev N., Ergasheva D. METHODS OF PROFESSIONAL SELF-DEVELOPMENT OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1679-1681.

11. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.

12. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.

13. Abdullayeva B., Aliyev N. Bo ‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zo ‘zini rivojlantirishda pedagogik qobiliyatning ahamiyati //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 74-78.

14. Abdiqayumovich A. N., Abdiqayumovna I. M. Fur’e Method for Solving Boundary Value Problems Placed in Parabolic Type Equations //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 107-113.

15. Abdullayeva B. S., Aliyev N. A., qizi Ergasheva D. S. Improving self-development competency of future primary class teachers //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 274-277.

16. Sayfutdinova A. B., Abdiqayumovich A. N. THEORETICAL ISSUES OF INCREASING TEACHING EFFICIENCY BASED ON MODERN ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PRIMARY CLASS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 233-239.
17. Sayfutdinovna A. B., Abdiqayumovich A. N. IMPROVING THE COMPETENCE OF THE FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHER IN SELF-DEVELOPMENT. – 2022.
18. Abdikayumovich A. N. et al. Innovative Approaches in Mathematics (Pisa and Timss Programs) //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 116-118.
19. Yusupova A. K., Aliyev N. A. SOME CONSIDERATIONS FOR TEACHING PROBABILITY THEORY AND MATHEMATICAL STATISTICS //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 1183-1191.
20. Sayfutdinovna A. B., Abdiqayumovich A. N. IMPROVING SELF-DEVELOPMENT COMPETENCY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 8. – C. 509-512.